

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MUSIQA FOLKLORINI O'RGATISH JARAYONINING SAMARADORLIGI

Hamidova Hafiza Nabiyevna

Musiqa ta'lifi II bosqich magistri

Ashurova Shaxnoza Axmedovna

Buxoro maqom mакtab-internati birinchi toifali o'qituvchi

Annotation. O'quvchilarga musiqa folklorini o'rgatishning muhim vosita va usullari qatorida uning ahamiyati bolalar ruhiyatiga singdirish yo'llari musiqa folklorini o'rgatish jarayonining naqadar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga har qanday xalq qo'shig'ini termasini, laparlari, o'lanlari, maqom yo'llarini, uning sho'balarini o'rgataverish, mashg'ulot va konsert repertuarlariga ishtirok etishi yaxshi natijalarga olib kelavermaydi. Bu borada ma'lum bir pedagogik ta'lim texnologiyalardan, musiqa folklorini o'rgatish mezonlaridan foydalanish o'quvchilarda musiqa folklorini o'rgatish jarayoni samaradorligini oshirishda yordam beradi.

Tayanch so'zlar: Pedagogik ta'lim, samaradorlik, musiqa janrlari.

Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, ushbu sohada yaratilgan ilmiy-uslubiy manbalar mazmuni bilan tanishib chiqish asosida amaliy tajriba-sinov ishlarining qay tarzda qo'yilishiga jiddiy e'tibor berildi. Bu tadqiqot echimida o'ziga xos bosqich bo'lib, ilgari surilayotgan nazariy g'oyalarning amaliyotda qay darajada o'z isbotini topayotganligini aniqlashdan iboratdir. SHu maqsadda ushbu faoliyatning umumiyligi loyihasi ishlab chiqildi. Pedagogika umumiyligi o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarni estetik tarbiyalashda folklor qo'shiqlaridan foydalanish yuzasidan tajriba-sinov ishlarida qo'zda tutilgan maqsadni ijobjiy hal etish uchun uning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

1. Umumiyligi o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarida folklor qo'shiqlariga e'tibor va mavjud munosabatni o'rganish. Bu o'rinda umumiyligi o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarining turlari, ish mazmuni, repertuari, ularga rahbarlik qiluvchi musiqachi-pedagoglar, dars qatnashchilari o'rtasida anketa-so'rovlarni o'tkazish, pedagogik kuzatuv ishlarini olib borish, suhbatlar uyushtirish, tajriba-sinov ishlariga tayyorlarlik ko'rish.

2. Tajriba-sinov ishlarining loyihasi asosida tayyorlangan mashg'ulotlar mazmuni bilan dars rahbarlarini tanishtirish, ijobjiy samaradorlikka ega deb faraz qilingan ish uslublari, shakl va metodlarini amalda qo'llash va ularning natijalarini tahlil qilib borish.

3. O‘quvchi-yoshlarning milliy-ma’naviy qadriyatlargacha, shu yo‘sinda milliy musiqamizga, xususan, folklor qo‘shiqlariga qiziqish va e’tiborlarini kuchaytirish, ularda bu borada ma’lum nazariy va amaliy bilim, tushuncha va malakalarni hosil qilish.

4. O‘quvchilarni folklor qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash borasida o‘ziga xos muammolarni aniqlab, ularni asta-sekin bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash.

5. Folklor qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyani amalga oshirish maqsadida ko‘zlangan samarali mashg‘ulotlar, ish shakl va usullarini takomillashtirib borish va amaliy so‘rov, munozara, konsert, ko‘rik-tanlovlar, o‘quvchilarning folklor qo‘shiqlari bo‘yicha ijrochilik bilan bog‘liq bilim, malakalariga tayangan holda mashg‘ulotlarning samaradorlik darajasini aniqlash.

O‘quvchilarni folklor qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash muammosi doirasidagi tajriba-sinov ishlari, asosan, 3 bosqichda tashkil etildi.

1. Tashkiliy bosqich. Bu bosqichda tajriba-sinov ishlari mazmunini yorituvchi loyiha va ishchi reja ishlab chiqildi. Har bir bosqichda hal etiladigan aniq vazifalar tajriba-sinov ishlari ob’ektlari, muddatlari belgilandi. SHu maqsadda tanlangan ob’ektlardagi badiiy havaskorlik darslari rahbarlari va shu faoliyatga jalb etilgan mas’ul shaxslar bilan tajriba-sinov ishlarining mohiyati, maqsadi, amaliy faoliyat jarayonini tashkil etish, kutilgan natijalar yuzasidan suhbat-muloqotlar o‘tkazildi. Bu suhbatlarda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish texnologiyalarini eksperimentatorlarga tushuntirish diqqat markazida bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini belgilovchi tajriba va nazorat guruhlari belgilandi.

2. Asosiy bosqich. Umumiyligi o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni folklor qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlar yaratildi, ya’ni folklor qo‘shiqlari bo‘yicha mashg‘ulotlar ishlanmalari (turli kecha, uchrashuv, munozara, ma’ruza-konsertlar ssenariylari va ma’sul rahbarlar bilan uzlucksiz muloqot) yo‘lga qo‘yildi va amaliy faoliyatning borishi kuzatib borildi.

3. YAkuniy bosqich. Bu bosqichda tajriba-sinov ishlari natijalari umumlashtirildi va tahlil qilindi. Folklor qo‘shiqlari orqali estetik tarbiyani amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar mazmuni, metodikaning samaradorlik darajasi aniqlandi. YAkuniy ko‘rsatkichlar matematik-statistika metodi yordamida qayta ishlandi.

Umumiyligi o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni folklor qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash muammosini ilmiy tadqiq etish jarayonida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi prinsiplar asosida yo‘lga qo‘yildi va ijobiy natijalarga erishildi:

1. Tajriba-sinov ishlariga aniq maqsad va unga monand vazifalar asosida yondashilganligi.

2. Tajriba-sinov ishlarining o‘ziga xos texnologiyasi ishlab chiqilganligi.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat ko‘rsatgan musiqa darslarida folklor qo‘shiqlariga e’tibor, munosabat haqida rahbar-o‘qituvchilarning imkoniyatlari, qatnashuvchilarining qiziqish va istaklari inobatga olinganligi.

4. Tajriba-sinov ishlari maxsus reja va dastur asosida tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

5. Amaliy faoliyat jarayonida milliy qadriyatlarni tiklash va milliy musiqiy ta’limni barpo etish borasida olib borilayotgan islohotlar mazmunidan kelib chiqilganlik.

«Farg‘ona taniqli bastakor To‘xtasin Jalilov kabi mening ham vatanim. Men Farg‘onaning juda ko‘p qo‘shiqlarini bilar edim, biroq ustozim menga shunday tutilmaganlarini aytib bergenlarida xalq dahosini, uning ko‘ngil xazinasining naqadar boyligini ko‘rib hayratda qolardim. Ularning ko‘pchiligi keyinchalik mening konsert repertuarimdan keng va mustahkam o‘rin oldi. U meni «Samarqand ushshog‘i», «CHapandozi navo», «CHorgoh» singari klassik ashulalar bilan tanishtirdi va bu ashulalarni aytish yo‘llarini o‘rgatdi.

Xalqning mavsum va marosim qo‘shiqlarini o‘quvchi-yoshlar e’tiboriga havola qilar ekanmiz, ularga bu bayramning tarixi, o‘tkazilish an’analari, unda aytildigan qo‘shiqlar, ijro qilinadigan o‘yinlar va boshqa san’at tadbirlari to‘g‘risida tushuncha berishga urindik. CHunki Navro‘z bayrami tabiat og‘ushida nishonlanadi, o‘sha kuni keng yalangliklarda dor o‘yinlari, uloq, poyga, arg‘amchi uchish, kurashish musobaqalari, milliy taomlar tayyorlash, sumalak pishirish, kelin salomlar uyushtiriladi. SHodiyonalarda yor-yorlar aytildi, o‘lanlar, xalq dostonlaridan parchalar kuyylanadi. Xullas, Navro‘z bayrami mehnatkashlarni, ayniqsa, yoshlarni go‘zallikka, o‘z azaliy milliy urf-odat, qadriyatlаримизга mehru muhabbat ruhida tarbiyalashning o‘ziga yarasha vositalaridan bo‘lganidan, undan o‘rinli va unumli foydalanishga harakat qildik. Zero, bu bayramning nafaqat ma’naviy-estetik, balki vatanparvarlik, ekologik tarbiya borasida ham ulkan ahamiyati bor. Undan tashqari ommaviyligi ham ko‘zda tutilgan samaraga erishishda ko‘maklashadi.

Biz o‘z tajribalarimizni o‘tkazgan damlarda har yili Navro‘z bayramiga katta tayyorgarlik ko‘rdik va o‘quvchilarni keng jalb etgan holda katta dasturda ko‘pchilikka konsertlar berdik, turli tomoshalar uyushtirdik. Natijada konsert dasturlarimizdan folklor qo‘shiqlari va kuylari asosida yaratilgan yangi nomerlar joy oldi. Bu erda ulardan biriga to‘xtalib o‘tamiz. U «Davrimiz yor-yori» deb atalgan vokal-xoreografik kompozitsiya bo‘lib, keyinchalik dasturimizdan mustahkam joy oldi. Unga ko‘ra Bobo dehqon, Momo er, Bahoroy obrazlari yaratildi. YOr-yor, kelin salom, mayda-mayda, halinchak, sust xotin, shuningdek, viloyat aholisi orasidagi o‘ziga xos folklor namunalari ijro etildi. Bunday chiqishlar juda katta qiziqish va olqishlarga sazovor bo‘ldi.

Vokal-xoreografik kompozitsiya uchun zamonaviy yor-yorlarning ham eng yaxshi namunalari tanlab olindi va yangicha raqlar jo‘rligida ijro etildi. Darsdagi

xushovoz ashulachi va raqqosa qizlar bu kompozitsiyada faol ishtirok etishdi. Bastakor Muhammadjon Mirzaevning «Bahor valsi» kuyi bu kompozitsiya uchun o‘ziga yarasha uvertyura vazifasini bajardi. SHundan keyin qizlar guruhi yor-yor aytishib, kelin va kuyov obrazidagi yigit-qizni davraga olib kirishdi. Yigitlar ularga qo‘shilishdi, shundang so‘ng hammalari birgalikda zavqli va quvnoq raqlar ijro etdilar. Qo‘sinq bilan o‘yin shu tariqa omuxta bo‘lib ketdi. Biz xalq orasida mashhur bo‘lgan «Dilxiroy», «Andijon polkasi» singari kuylarni ham shu kompozitsiya tarkibiga singdirib yubordik. Natijada barchaga ma’qul keladigan, ayniqsa, yoshlarda go‘zal histuyg‘ular uyg‘otadigan konsert dasturlari yuzaga keldi. Ana shunday mazmundagi zamonaviy va yangi yor-yorlar kompozitsiyaning asosini tashkil etadi. SHuningdek, yoshlar sho‘x o‘lanlar va dilkash laparlarni, turli yumoristik termalarni ham ijro etdilar. Bularning barchasi tadbirimizning qiziqarli va mazmundor chiqishini ta’minladi. Navro‘z bayramining keyingi yillarda respublikamizda keng nishonlanayotganligi barcha xalqimiz qatori yosh avlod vakillarini go‘zallikka, xalq an’analari, udumlari, hayotbaxsh odatlarga hurmat va ehtirom ruhida tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egaligini ko‘rsatdi. Biz ham o‘z ishimizda hayot sinovlariga dosh bergen, ko‘p asrlardan beri yashab kelayotgan va qayta tiklanib, umumxalq shodiyonasiga aylangan bu kabi an’analardan o‘quvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalashning samarali vositasi sifatida unumli foydalandik. Faqat ashula va raqs to‘garagi jamoasi faoliyatida emas, balki boshqa ijodiy darslar ishida ham turli sanalar va bayramlar bilan bog‘liq bo‘lgan va ularga atab yaratilgan folklor qo‘sishlarining turli janrlaridagi namunalaridan va raqlardan foydalandik. Bu esa o‘z navbatida to‘garagimiz faoliyatining ommaviylashuvida katta ahamiyat kasb etdi.

Biz o‘z tajribalarimizga musiqa rahbarlari va baletmeystrlarni, til-adabiyot o‘qituvchilari, iste’dodli havaskor shoir va musiqa mutaxassislarini taklif qildik va ular bilan hamjihatlikda ish olib bordik. Viloyat musiqali drama teatri, pedagogika bilim yurti, xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy metodik markazi kabi ijodiy tashkilotlar bilan hamkorligimiz o‘quvchilarni folklor qo‘sishlarini vositasida estetik tarbiyalashni tashkil etish texnologiyasi mavzuidagi eng samarali bo‘g‘in bo‘ldi. Ko‘p yillik tajribalarimizning natijalari va uslublarimizning, ularning samarasi o‘laroq vujudga kelgan dastur va tavsiyalarimizning pedagogika fanida, estetik tarbiya tizimida qo‘llanishi ijobjiy samaralar berishligini tasdiqladi.

SHunday qilib, folklor qo‘sishlarini vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashni tashkil etish texnologiyasining komponentlari aniqlandi va ularning samaradorlik darajalari amalda sinab ko‘rildi. Tadqiqotda tarixiy, san’atshunoslikka oid, pedagogik, psixologik, metodik, tashkiliy jihatlar, shuningdek, bu texnologik majmuuning mazmunidagi an’anaviylik, milliylik, qadimiylilik va zamonaviylik prinsiplarining qo‘llanishi folklor qo‘sishlaridan estetik tarbiya vositasi sifatida foydalanishning samaradorligini ta’minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumaev M. Ma’naviyat maskanlari.. -T.: Ma’naviyat, 2001. -16 b.
2. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. -T.: «SHarq» nashriyot-manbaa konserni bosh tahririyati. -1998. -239 b.
3. Karomatov F.M. Xalq muzikasi. «O‘zbek muzikasi tarixi» kitobidan. (Tuzuvchi Solomonova T.E). -T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1981. -27-34-b.